INKLYUZIV IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti
mustaqil tatqiqotchisi
Nazirova Iroda Nigmatjon qizi
Irodaxoon26@gmail.com

Jahon amaliyotida inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirish borasida turli mamlakatlar o‘ziga xos institutsional, ijtimoiy va iqtisodiy modellarni qo‘llab kelmoqda. Ushbu tajribalar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda farqlansa-da, ularning barchasida iqtisodiy o‘sish natijalarini keng qatlamlar manfaatiga xizmat qildirish, imkoniyatlar tengligini ta’minlash va ijtimoiy-institutsional barqarorlikni mustahkamlash umumiy maqsad sifatida namoyon bo‘ladi.

Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Daniya, Norvegiya) tajribasi inklyuziv iqtisodiyotning eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu davlatlarda yuqori darajadagi progressiv soliq tizimi, kuchli ijtimoiy transfertlar, umumiy sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlariga bepul yoki qulay narxlarda kirish imkoniyati orqali daromadlar tengsizligi sezilarli darajada pasaytirilgan. Bunda “flexicurity” (moslashuvchan xavfsizlik) modeli – mehnat bozorining moslashuvchanligi bilan ijtimoiy himoyaning yuqori darajasini uyg‘unlashtirish – alohida ahamiyat kasb etadi, bu esa aholi bandligi va daromadlar barqarorligini bir vaqtning o‘zida ta’minlashga xizmat qiladi.

Germaniyaning ijtimoiy bozor iqtisodiyoti (Soziale Marktwirtschaft) modeli ham inklyuzivlikning muhim amaliy namunasi sifatida e’tirof etiladi. Ushbu modelda bozor erkinligi bilan davlatning ijtimoiy tartibga soluvchi roli uyg‘unlashtirilib, kasbiy ta’lim-tayyorgarlik tizimi (dual ta’lim), mehnat munosabatlarida ijtimoiy sheriklik (kasaba uyushmalari, tadbirkorlar va davlat o‘rtasidagi muvofiqlashuv) hamda kichik va o‘rta biznesni (Mittelstand) qo‘llab-quvvatlash orqali keng qatlamlarning iqtisodiy jarayonlarga jalb etilishi

ta’minlangan.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreya tajribasi ham diqqatga sazovor. Mamlakatda 1960–1980-yillarda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati insonga investitsiya kiritish – ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim qamrovini kengaytirish – bilan uzviy bog‘liq holda olib borilgan. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sish samaralarining keng aholi qatlamlariga, jumladan qishloq joylarga ham yetib borishini ta’minlagan. Xitoyning so‘nggi o‘n yilliklardagi kambag‘allikni qisqartirish siyosati, xususan, maqsadli kambag‘allikni bartaraf etish (targeted poverty alleviation) dasturi ham davlat tomonidan yo‘naltirilgan inklyuziv rivojlanish modelining amaliy ko‘rinishi sifatida baholanadi.

Inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishning aholi farovonligiga aylanishi avtomatik jarayon emas, balki davlatning institutsional, ijtimoiy, moliyaviy, mehnat bozori va hududiy siyosati bilan bevosita bog‘liqdir. Jahon amaliyotida inklyuziv iqtisodiyot, odatda, uchta yo‘nalishda shakllanadi:

– inson kapitaliga investitsiya kiritish;

– mehnat bozori va ijtimoiy himoya tizimini uyg‘unlashtirish;

– hududiy, raqamli va moliyaviy imkoniyatlardan teng foydalanishni ta’minlashdan iborat.

BMTning 8-Barqaror rivojlanish maqsadida ham barqaror, inklyuziv iqtisodiy o‘sish, to‘liq va samarali bandlik hamda barcha uchun munosib mehnat asosiy maqsad sifatida belgilangan.[1] Inklyuziv iqtisodiyotni baholash bo‘yicha xalqaro amaliyotda Jahon iqtisodiy forumi tomonidan ishlab chiqilgan “Inclusive Development Index” muhim o‘rin tutadi. Ushbu indeks iqtisodiy rivojlanishni faqat YAIM o‘sishi bilan emas, balki o‘sish va rivojlanish, inklyuzivlik, avlodlararo adolat va barqarorlik ustunlari orqali baholaydi. Indeks 103 mamlakatning iqtisodiy natijalarini YAIMdan tashqari 11 ta o‘lcham bo‘yicha

[1] United Nations. Sustainable Development Goal 8: Decent Work and Economic Growth // United Nations Sustainable Development Goals.

baholashga qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida inklyuziv iqtisodiyotning eng muhim xususiyati iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o‘rtasida institutsional muvozanat ta’minlanganidir. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida, xususan Shvetsiya, Daniya va Norvegiyada inklyuziv iqtisodiyot modeli yuqori soliq tushumlari, universal ta’lim va tibbiyot xizmatlari, mehnat bozorida faol siyosat, kasbiy qayta tayyorlash va ijtimoiy himoya tizimi bilan bog‘liq. Jahon iqtisodiy forumining 2018 yilgi Inclusive Development Index ma’lumotlarida rivojlangan iqtisodiyotlar orasida Norvegiya 1-o‘rinni egallagan, undan keyin Islandiya, Luksemburg, Shveysariya va Daniya joy olgan.

Germaniya tajribasi inklyuziv iqtisodiyotda “ijtimoiy bozor iqtisodiyoti” modelining ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu modelda bozor raqobati saqlangan holda davlat aholining ijtimoiy himoyasi, kasbiy ta’lim, mehnat bozori siyosati va mintaqaviy infratuzilmaga faol aralashadi. Germaniyada dual ta’lim tizimi, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, yuqori samarali sanoat ish o‘rinlari va ijtimoiy sug‘urta tizimi inklyuziv iqtisodiyotning asosiy amaliy mexanizmlari hisoblanadi. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, daromadlar tengsizligi OECD mamlakatlarida aholi daromadlarining taqsimlanishi orqali baholanadi; 2021 yilda OECD bo‘yicha eng boy 10 foiz aholining o‘rtacha daromadi eng kambag‘al 10 foiz aholi daromadidan 8,4 barobar yuqori bo‘lgan.



1-rasm. Germaniya davlatining iqtisodiy o‘sish sur’atlari tendensiyasi[2]

1.3.1-rasm mahsulotlaridan ko‘rinib turibdiki, Germaniya iqtisodiyoti 2023-2024 yillarda retsessiya belgilarini ko‘rsatgan, Germaniyaning YAIM 2023 yilda 0,1%ga va 2024 yilda 0,2%ga qisqargan. Yevropa Ittifoqining Germaniya iqtisodiy prognozi 2026 yilda 1,1% o‘sishini prognoz qilmoqda. Albatta bunday ustuvorliklarning o‘zgarishi fonida tiklanishga urinish sifatida ham talqin qilinadi. Biroq, ushbu ma’lumotlarga asoslanib, pragmatizmga o‘tish va avvalgi “yashil” tizimlarni rad etish uchun iqtisodiy asoslar mavjud degan xulosaga kelish mumkin, xolos.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi esa inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirishda kambag‘allikni qisqartirish, qishloq infratuzilmasi, manzilli ijtimoiy transfertlar va mehnat bozoridagi ishtirokni kengaytirish muhimligini ko‘rsatadi. Xitoy tajribasi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoy so‘nggi 40 yil davomida qariyb 800 mln kishini xalqaro kambag‘allik chegarasidan chiqargan va bu global kambag‘allikni qisqartirishning 75 foizdan ortig‘ini tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. Inclusive Growth Analytics: Framework and Application. – Washington DC: World Bank, 2009.

2. UNDP. Human Development Report: Inequality-adjusted Human Development Index (IHDI). – New York: UNDP, 2023.

3. European Commission. Europe 2020: A Strategy for Smart, Sustainable and Inclusive Growth. – Brussels: European Commission, 2010.

4. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton: Princeton University Press, 1990.

[2] https://progressive-economy.ru/wp-content/uploads/2025/06/politicheskie-i-energeticheskie-transformaczii.pdf.

5. Wilthagen T., Tros F. The Concept of "Flexicurity": A New Approach to Regulating Employment and Labour Markets // Transfer: European Review of Labour and Research. – 2004. – Vol. 10, No. 2. – P. 166–186.

6. Streeck W. German Capitalism: Does It Exist? Can It Survive? // MPIfG Discussion Paper. – 1995.

7. World Bank. China: Targeted Poverty Alleviation and Its Lessons for Global Poverty Reduction. – Washington DC: World Bank, 2020.

8. Amsden A.H. Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization. – New York: Oxford University Press, 1989.